

**MUSTAFO KAMOL OTATURKNING TURKIYA RESPUBLIKASINI BARPO
ETISHDAGI ROLI VA OLIB BORGAN ISLOHOTLARI.**

Ergashev Ismoilbek Azim o'g'li

ergashevsmi@gmail.com

Yusupboyev Elbek San'atovich

yusupboyevbek@gmail.com

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, "xalqaro huquq"
fakulteti 1- kurs talabalari*

Özet: *Bu makalede Mustafa Kemal Atatürk'ün Türkiye'nin kalkınmasındaki başarıları ve iç ve dış politikaları tarihî kaynaklar ve mevcut bilimsel araştırmalar temelinde ele alınmıştır. Atatürk'ün kişiliği, bu unvana layık görülme süreci, iktidara gelme sebepleri, Osmanlı İmparatorluğu sonrası Türkiye Cumhuriyeti'ni kurma süreci ve kalkınması için yaptığı reformlar incelenmiştir.*

Anahtar kelimeler: *Mustafa Kemal Atatürk, Türkiye, Türk devleti, Atatürk politikası, Türkiye'nin kalkınması, Osmanlı dönemi, Yeni devletin kuruluşu, Türkiye tarihi, Diplomasi, Türk diplomasisi, İç ve dış politika*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mustaf o Kamol Otaturkning Turkiya taraqqiyoti yo'lida erishgan yutuqlari, uning ichki va tashqi maydonda olib borgan siyosati haqida muhim ma'lumotlar tarixiy manbalar va mavjud ilmiy izlanishlar asosida yoritib berilgan. Otaturkning shaxsi, uning ushbu nomga sazovor bo'lish tarixi, hokimyat tepasiga kelish sabablari va buning uchun bosib o'tgan yo'li, Usmonli imperiyadan keyin Turkiya davlatiga asos solishi va uning rivoji yo'lida olib borgan islohotlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Mustaf o Kamol Otaturk, Turkiya, Turkiya davlati, Otaturk siyosati, Turkiya taraqqiyoti, Usmonlilar davri, Yangi davlat tuzilishi, Turkiya tarixi, Diplomatiya, Turkiya diplomatiyasi, Ichki va tashqi siyosat.*

Annotation: *This article highlights the achievements of Mustafa Kemal Atatürk in the development of Turkey, as well as his domestic and foreign policies, based on historical sources and existing scholarly research. It analyzes Atatürk's personality, the history of how he earned this distinguished title, the reasons for his rise to power, his path to establishing the Turkish state after the Ottoman Empire, and the reforms he implemented to advance its development. Keywords: Mustafa Kemal Atatürk, Turkey, Turkish state, Atatürk's policy, Turkish development, Ottoman period, New state formation, Turkish history, Diplomacy, Turkish diplomacy, Domestic and foreign policy*

Аннотация: В статье освещаются достижения Мустафы Кемалья Ататюрка на пути развития Турции, а также его внутренняя и внешняя политика на основе исторических источников и существующих научных исследований. Анализируется личность Ататюрка, история получения им этого заслуженного звания, причины его прихода к власти, путь создания Турецкого государства после Османской империи и проведённые им реформы для развития страны.

Ключевые слова: Мустафа Кемаль Ататюрк, Турция, Турецкое государство, политика Ататюрка, развитие Турции, период Османской империи, формирование нового государства, история Турции, дипломатия, турецкая дипломатия, внутренняя и внешняя политика

Mustafo Kamol Otaturk insoniyat tarixida milliy mustaqillik, davlat qurish va jamiyatni modernizatsiya qilishda o'ziga xos iz qoldirgan shaxs sifatida tanilgan. U Turkiya Respublikasining asoschisi, iste'dodli harbiy qo'mondon va dono siyosiy arbob bo'lib, uning faoliyati nafaqat Turkiya, balki butun mintaqa siyosiy jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Otaturkning faoliyati zamonaviy Turkiya davlatining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mustafo Kamol Otaturkning turkiya taraqqiyoti yo'lida erishgan ulkan yutuqlari, uning ichki va tashqi siyosatidagi o'rni haqida so'z boshlashdan avval ushbu shaxs haqida to'liq tassavurga ega bo'lish lozim. Turkiya Respublikasining birinchi prezidenti Mustafa Kamol Otaturk 1881-yilda Usmoniylar imperyasiga qarashli bo'lgan Gretsiya (Janubi-Sharqiy Yevropa, Bolqon yarimorolining janubi va uning atrofidagi orollarda joylashgan davlat) ning Saloniki shahrida tavallud topdi. Mustafo Otaturkning tug'ilgan sanasi ma'lum emas, chunki o'sha davrlarda mamlakatda Grigorian¹ kalendari joriy etilmagan edi. Usmonlilar imperiyasi barcha ishlarni hijriy taqvim bo'yicha yuritardi. Mustafo keyinchalik o'zining tug'ilgan kunini Turkiya mustaqilligi uchun kurash boshlangan sana — 19-mayga belgilagan. Uning otasi Ali Rizo Afandi, onasi esa Zubayda Xonim edi. Oilada juda ko'p farzandlar tug'ilgan bo'lib, ulardan ikkitasigina yashab qolgan, qolganlari balog'at yoshiga yetmasdan vafot etgan. Shuning uchun ham ular o'g'li Mustafo va qizi Mekbelega juda mehribon, ta'lim olishiga esa e'tiborli edi. Zubayda Xonim o'g'lining diniy ta'lim olishi, Qur'on o'rganishi va qozi bo'lishini xohlardi. Ali Rizo Afandi esa Mustafoning ko'proq zamonaviy bilimlar egallashini istagan. Mustafo dastlab o'qishni Hofiz Mehmed Afandi (diniy maktab) maktabida boshlagan keyinchalik ta'lim olishni Shamsi Afandining zamonaviy maktabida davom ettirdi. 1888-yili Mustafo yetti yoshga to'lganida Ali Rizo Afandi vafot etadi va ular Salonikini tark etib, amakisi Xusayn Afandining uyiga ko'chib o'tadi. Biroq Mustafo o'qishini tashlab qo'ymaydi, masofa va qiyinchiliklarga qaramasdan o'qishni davom ettiradi. U Shamsi Afandining

¹ Tarix Sinaps, 2024. Grigorian taqvimi. Available at: <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/grigorian-taqvimi/> (Accessed: 6 March 2026).

maktabini tugatganidan so'ng Salonikidagi ma'muriy maktabga o'qishga kiradi. Biroq ko'p o'tmay uning maqsadlari o'zgarib, harbiy maktabga kirish uchun bu yerni tashlab ketadi. Mustafa maktabda aql-zakovati, mehnatkashligi, serg'ayratligi, shuningdek, tez jahli chiqishi bilan boshqalardan ajralib turgan. Aynan harbiy maktabda o'qib yurgan paytlarida Mustafa ikkinchi nomi — Kamol ismini olgan. Mustafa Afandi ismli o'qituvchi uning tarix va chet tillarini yaxshi o'zlashtirgani, matematikani zo'r bilgani va erishgan yutuqlari uchun "Kamol" (mukammal, yetuk) deb atay boshlaydi. Mustafa harbiy maktabni 1896-yilda tamomlaydi va o'qishini Monastir shahridagi harbiy bilim yurtida davom ettiradi.² Mustafa Kamol Usmonli armiyasidagi xizmatini 1905-yil yanvar oyida shtab kapitani sifatida boshlagan. Uning birinchi harbiy vazifasi Damashqda joylashgan 5-armiya tarkibida Livanning janubiy tog'li hududlarida yashovchi ismoiliylar qo'zg'olonini bostirish bo'lgan. U vatanidan uzoqda xizmat qilganining sabablaridan biri sifatida uning inqilobiy fikrlari va faoliyati ko'rsatiladi. Keyinchalik Mustafa Kamol vataniga qaytib keladi va 1906-yilda Abdulhamid II siyosatidan norozi bo'lgan kishilar bilan birgalikda "Vatan va ozodlik" nomli inqilobiy jamiyatni tashkil etadi. Bu davrda Usmonli imperiyasi monarxiya tuzumida bo'lib, mamlakatni Abdulhamid II boshqarayotgan edi. Uning siyosiy xatolari, davlatning tashqi qarzlarning ko'payib ketishi va chet davlatlar tomonidan bosib olinishi xavfi jamiyatda, ayniqsa ilg'or fikrli kishilar orasida hukumatga nisbatan norozilikni kuchaytirib boradi. Shu sababli jamiyatning ilg'or qatlamlari respublika tuzumini o'rnatish niyatida turli tashkilotlar tuzib, inqilobiy harakatlar olib boradi. Shunday harakatlardan biri 1908-yilda yosh ofitser Ahmed Niyoziy hamda "Ittihad va taraqqiyot" tashkiloti rahbari Anvarbey boshchiligidagi amalga oshiriladi. Ular konstitutsiya joriy etilishini talab qilgan. Abdulhamid II bu qo'zg'olonni bostirish uchun qo'shin yuboradi, ammo askarlar inqilobchilar tomoniga o'tib ketadi va sulton mag'lubiyatga uchraydi. Bir yil o'tib, yana bir to'ntarish sodir bo'ladi. O'sha paytda isyonni bostirish uchun shtab boshlig'i lavozimida ishlayotgan Mustafa Kamol tayinlanadi. U inqilobchilar tomonida turib Abdulhamid II ning hokimiyatdan chetlatilishida qatnashadi va sultonning o'rniga uning ukasi Mexmet V taxtga o'tirishiga yordam beradi. Shundan keyin mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda Mustafa Kamol faol ishtirok eta boshlaydi. Vatan oldidagi xizmatlari va janglardagi jasorati tufayli uning harbiy unvoni avval mayorlikka, keyin esa podpolkovniklik darajasiga ko'tariladi. Bu davrda dunyoda Birinchi jahon urushi davom etayotgan edi. Urush natijasida Usmonli imperiyasi mag'lubiyatga uchrab, g'olib davlatlar tomonidan bosib olinishi xavfi ostida qoladi. Usmonli imperiyasining so'nggi sultoni Mexmet VI bu vaziyatda faol choralar ko'rmagan paytda Mustafa Kamol posho mamlakatni himoya qilish uchun maydonga chiqadi. U turk zobitlari va ziyolilarini

² Dreamstime, n.d. Bitola Monastir Military High School where Atatürk graduated. Available at: <https://www.dreamstime.com/editorial-stock-image-bitola-monastir-military-high-school-bitola-monastir-military-high-school-where-ataturk-founder-turkey-graduated-was-image99576954> (Accessed: 6 March 2026).

birlashtirib, mamlakatni himoya qilishga chaqiradi. Smirna shahriga qo'shin kiritmoqchi bo'lgan Gretsiya bu maqsadiga erisha olmaydi va turklar bilan kelishuvga majbur bo'ladi. Mustafo Kamol davlatning hududiy yaxlitligini saqlab qolishga erishadi. Keyinchalik mamlakatda kim hokimiyatni boshqarishini aniqlash uchun parlament saylovlari o'tkaziladi. Bu paytda Mustafo Kamol posho o'zining siyosiy faolligi, xalq oldidagi xizmatlari va obro'si bilan Mexmet VI dan ancha ustun bo'lib borayotgan edi. Saylov natijalariga ko'ra, Mustafo Kamol tarafdorlari ko'pchilik ovozni qo'lga kiritadi. Shundan so'ng 1920-yil 28-yanvarda Istanbulda Birinchi jahon urushidan keyingi Turkiya masalasini muhokama qilish uchun majlis o'tkaziladi. Majlis davomida "Turkiya mustaqilligi to'g'risida"³ deklaratsiya qabul qilinadi va turklar yashaydigan hududlar Usmonli davlati tarkibida qolishi kerakligi e'lon qilinadi. Antanta davlatlari — Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya — bu qarordan norozi bo'lib, Turkiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlaydi. Shu paytda Mustafo Kamol Anqara shahrida qo'shin to'plashga kirishadi, ammo askarlar uchun qurol-yarog' yetarli emas edi. Vaziyatdan chiqish uchun Mustafo Kamol Turkiyada kommunistik davlat qurish ehtimolini bildiradi va bolsheviklar bilan shartnoma tuzadi.⁴ Natijada Rossiya Turkiyaga qurol-yarog' va moddiy yordam berishga rozi bo'ladi. Shu yordam bilan Mustafo Kamol boshchiligidagi turk qo'shinlari 1922-yilga kelib mamlakatni Yevropa davlatlari qo'shinlaridan to'liq ozod qiladi. 1923-yil 29-oktabr kuni Mustafo Kamol Turkiyani Respublika deb e'lon qiladi va bu kunni milliy bayram sifatida nishonlashni taklif etadi. Oradan ko'p o'tmay Buyuk Millat Majlisida⁵ prezidentlik saylovi o'tkaziladi va natijada Mustafo Kamol Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylanadi.

O'tgan asrning eng faol siyosiy arboblardan biri bo'lgan Mustafo Kamol Turkiya iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida turli siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy islohotlarni boshladi. Avvalo, Mustafo Kamol Otaturk sifatida tanilgan shaxs bo'lib, uning ishlari bilan bog'liq bo'lgan olti tamoyilni eslash muhim: respublikachilik, millatparvarlik, xalqparvarlik, dunyoviylik, davlatchilik va inqilobchilik. Otaturk umrining oxirigacha shu tamoyillar asosida ish yuritdi. 1924-yilda Turkiyaning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustafo Kamol mamlakatni Yevropa andozasi asosida dunyoviy davlatga aylantirishga qaror qildi va islohotlarning asosiy maqsadi sifatida Turkiyani modernizatsiya qilishni belgiladi. U mamlakat bo'ylab yevropacha familiyalarni joriy qildi va shundan so'ng Buyuk Millat

³ *Turkey's Declaration of Independence: Text of the Document*. (n.d.). Available at: <https://www.jstor.org/stable/45328222> (Accessed: 6 March 2026).

⁴ *The Role of Ataturk and the Grand National Assembly of Turkey in the Treaties of Moscow and Kars*. (n.d.). *London Journal of Interdisciplinary Sciences*. Available at: <https://londonic.uk/js/index.php/ljis/article/view/28/15> (Accessed: 6 March 2026).

⁵ Ararat, O.N. (2021). *Türkiye Büyük Millet Meclisi'nin 101. Yılında Genel Bir Değerlendirme*. Available at: <https://ankaenstitusu.com/turkiye-buyuk-millet-meclisinin-101-yilinda-genel-bir-degerlendirme/> (Accessed: 6 March 2026).

Majlisi tomonidan rasmiy ravishda “Otaturk” (turklar otasi) nasabini oldi. Otaturk davrida ayol va erkaklar huquqlari tenglashtirildi: 1934-yilda xotin-qizlarga saylov huquqi berildi. U Turkiyani dunyoning yetakchi davlatlaridan biriga aylantirishga intildi va mamlakatni qoloqlikdan chiqarish uchun katta sa’y-harakatlar qildi. Uning islohotlari davomida Turkiyada birinchi milliy bank ochildi, davlat va din bir-biridan ajratildi, yangi jinoiy kodeks qabul qilindi, xalqaro o’lchov tizimi va yangi kalendar joriy etildi. Ta’lim tizimida yevropacha o’qitish uslubi, g’arb sanoq tizimi va lotin alifbosi qo’llanildi. Otaturk tashqi siyosatda esa barcha davlatlar bilan do’stona munosabatlarni o’rnatishga harakat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Mustafa Kamol Otaturk insoniyat tarixida milliy mustaqillikni ta’minlash, davlatni barpo etish va jamiyatni modernizatsiya qilish borasida o’ziga xos iz qoldirgan shaxs sifatida tanilgan. U nafaqat Turkiya Respublikasining asoschisi va birinchi prezidenti bo’lib, balki dono siyosiy arbob va iste’dodli harbiy qo’mondon sifatida ham tarixda o’z o’rnini topgan. Otaturkning harbiy va siyosiy faoliyati Usmonli imperiyasining so’nggi davrlarida, milliy mustaqillik kurashida va yangi Turkiya davlatini shakllantirish jarayonida muhim rol o’ynadi. Shuningdek, u mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga erishish maqsadida keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirdi. Davlat boshqaruvi, ta’lim, huquqiy tizim, iqtisodiyot va tashqi siyosat sohalarida olib borgan islohotlari orqali Otaturk Turkiyani zamonaviy, dunyoviy va barqaror davlatga aylantirdi. Uning olti tamoyili — respublikachilik, millatparvarlik, xalqparvarlik, dunyoviylik, davlatchilik va inqilobchilik — umrining oxirigacha uning siyosiy va ijtimoiy faoliyatiga asos bo’ldi. Natijada, Mustafa Kamol Otaturk nafaqat Turkiya tarixida, balki butun mintaqada milliy mustaqillik va modernizatsiya jarayonlarida hal qiluvchi rol o’ynagan buyuk yetakchi sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.The Role of Ataturk and the Grand National Assembly of Turkey in the Treaties of Moscow and Kars. (n.d.). London Journal of Interdisciplinary Sciences. Available at: <https://londonic.uk/js/index.php/ljis/article/view/28/15> (Accessed: 6 March 2026).

2.Turkey’s Declaration of Independence: Text of the Document. (n.d.). Available at: <https://www.jstor.org/stable/45328222> (Accessed: 6 March 2026).

3.Nabiev, E.B. (2022). Usmoniylar Imperiyasining Qulashi va Turkiya Respublikasini Tashkil Topishi. Zenodo. DOI: 10.5281/zenodo.6473857. Available at: <https://zenodo.org/records/6473857> (Accessed: 6 March 2026)

4.Tarix • Sinaps. (2024). Available at: <https://tarix.sinaps.uz/> (Accessed: 6 March 2026). (tarix.sinaps.uz)